O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA TEOLOGIK TUSHUNCHALAR: LEKSIK-SEMANTIK TAHLIL

Ismoilova Gulyora Xabibullo qizi
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz maqollarida uchraydigan teologik tushunchalarning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot imon, gunoh, tavba, savob, ehson, qiyomat, halol-harom, namoz, ro‘za kabi asosiy teologik tushunchalar asosida yaratilgan maqollarning ma’noviy qatlamlarini ochib beradi. Tahlil natijasida o‘zbek va ingliz xalqlarining diniy-axloqiy dunyoqarashi, milliy mentaliteti va lingvomadaniy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, teologik maqollar, imon, leksik-semantik tahlil, lingvomadaniyat, o‘zbek maqollari, ingliz maqollari, antiteza, axloq.*

KIRISH

Maqollar xalq tafakkurining oltin xazinasi bo‘lib, ular orqali ma’lum bir xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va diniy-ma’naviy e’tiqodi namoyon bo‘ladi. Paremiologiya sohasida maqollarning teologik tushunchalar asosida o‘rganilishi alohida ilmiy qimmatga ega. Maqollar - diniy e’tiqod va axloqiy normalarni avloddan avlodga o‘tkazuvchi eng qadimiy va ta’sirli vositalardan biridir [1, B. 25].

Maqollarni to‘plash va ularni o‘rganish dastlab XVIII asrda nemis olimi V.Vander tomonidan boshlangan. Lingvistika sohasida paremiologiya fan sifatida XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib sohada dunyo miqyosida taniqli olimlar - A.Teylor, B.Vayting, A.Dundes, L.Rorix va V.Mayder - tomonidan olib borilgan izlanishlar maqollarning ilmiy o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan [2, B. 129].

Dunyo tilishunosligida J.Nazarimogaddam, B.Haładi, V.Mayder, S.Gurney va Champion, A.Griffin, C.Plopper, J.Tompson, C.Fontan, A.Vinton, T.Perry kabi olimlarning tadqiqotlari teologik maqollarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [5, B. 15]. O‘zbek tilshunosligida teologik elementlari ishtirok etgan maqollarning shakllanishi va semantik tahlili, lingvokulturologik jihatdan o‘rganilishini B.Jo‘rayeva, G.Komilova, U.Tadjiyeva, Sh.Sultonovalarning tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin [3, B. 67].

Rus tilshunosligida O.Abakumova, Y.Jigarina, K.Fyodorova, L.Grichenko, A.Ribnikova, V.Dal, I.Snegirev, A.Potebnya, F.Buslayev kabi olimlarning tadqiqotlari maqollar va paremiologiya sohasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan [4, B. 322].

"Imon" tushunchasi o‘zbek maqollarida eng ko‘p uchraydigan teologik leksemalardan biridir. Ushbu maqollarda aytilishicha, odam yoshi, ko‘rinishi, kasbidan qat’iy nazar imonli bo‘lsa, adolat va vijdon bilan o‘z ishini bajaradi, aks holda faqat o‘z foydasini o‘ylab, boshqalarga ziyon berishi mumkin:

Yosh-u qarining joni bir, oriq-semizning imoni bir; savdogarda imon yo‘q, orin sotar, yolg‘onchida imon yo‘q jonin sotar; g‘ayratlidan imon qochib qutulmas; nodon mulla imoningni olar, nodon tabib-joningni [6, BB. 336-350].

Ushbu misollarda imon ma’naviy poklikning o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi. Imon yo‘qligi insonni o‘z manfaatini ko‘zlab boshqalarga zarar keltiruvchi mavjudotga aylantirishini maqol tili bilan lo‘nda va ta’sirchan qilib ifodalangan.

Ikkinchi semantik guruhda rahm-shafqatli bo‘lish imonga tenglashtirilyapti. Imoni bor inson o‘zgalarni o‘ylab gapiradi va rahm-shafqat ko‘rsatadi:

Kelinning - tili yo‘q, qaynonaning - imoni.

Bu maqolda imon nafaqat e’tiqodiy, balki ijtimoiy munosabatlar kontekstida ham talqin qilinadi. Til va imonning zidlashtirilishi orqali shafqat va muomala madaniyatining bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Uchinchi semantik guruh maqollarida farzandsizlik, imonsizlik va vatansizlik bir-biriga ulashtiriladi:

Bolasizning moli – uvol, imonsizning – joni; vatanga kelgan – imonga kelar; vatanni sevmoq imondandir.

Ushbu maqollar imon tushunchasini shaxsiy ma’naviyatdan kengaytirib, ijtimoiy va milliy mas’uliyat sathiga olib chiqadi. Vatanparvarlik va imondorlik bir-birini to‘ldiruvchi fazilatlar sifatida talqin etiladi.

To‘rtinchi guruh maqollarida insonlardagi yomon tilli yoki hayosizlik kabi yomon xulq, yoxud sabrlilik kabi fazilatlar uning imonining sinishi yoki mustahkamlanishiga ta’sir qilishi tasvirlanadi:

Yomon til yo jonga urar, yo – imonga; kamoli imon – sabr; imoni yo‘qning burdi yo‘q; orim kuyguncha imonim kuysin; hayosizning imoni yo‘q.

Bu maqollar imon va axloqning uzviy birligini ko‘rsatadi. Sabr, hayo va til odobi – bularning barchasi imonning ko‘rinishi, imon esa ularning manbai sifatida talqin etiladi.

Ushbu tadqiqotda insonning ma’naviy dunyosini ifodalovchi teologik tushunchalar asosida yaratilgan o‘zbek va ingliz maqollarining leksik-semantik tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki til va madaniyatda gunoh, tavba, savob, ehson, qiyomat, namoz, ro‘za, halol-harom, imon kabi asosiy teologik tushunchalar orqali inson axloqi, ruhiy holati, jamiyatdagi o‘rni, mas’uliyati va e’tiqodi chuqur ifodalangan.

O‘zbek maqollarida teologik tushunchalar ko‘proq axloqiy tarbiya, nasihat, adolat, insof, halollik va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq holda ifodalansa, ingliz maqollarida esa bu tushunchalar shaxsiy mas’uliyat, individual ong, xatoni tan olish va ma’naviy poklanish kabi jihatlar bilan kuchli uyg‘unlikda tasvirlangan.

Shuningdek, maqollar orqali teologik tushunchalarning ko‘chma va bevosita ma’noda ishlatilish hollari ham aniqlanib, ular xalqning dunyoqarashi, tarixiy-madaniy tafakkuri va e’tiqodi bilan bevosita bog‘liq ekani isbotlandi. Ayniqsa, halol-harom, imon, savob-gunoh kabi antitezali tushunchalar orqali jamiyatda axloqiy mezonlar qanday shakllanganini anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz maqollarida teologik tushunchalar xalqning ruhiy-ma’naviy qiyofasini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning qiyosiy tadqiqi ikkala xalqning mentaliteti, axloqiy qadriyatlari va diniy tafakkuri o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Taylor, A. The Proverb and an Index to "The Proverb". – Hatboro, PA: Folklore Associates, 1962. – 350 p.
2. Whiting, B. J. Early American Proverbs and Proverbial Phrases. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1977. – 505 p.
3. Dundes, A. Interpreting Folklore. – Bloomington: Indiana University Press, 1980. – 189 p.
4. Mieder, W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 240 p.
5. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Докторлик дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 74 б.
6. Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.
7. Саримсоқов Б. Халқ тафаккурининг олмос қатралари / Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1984. – Б.336–350.